| Davlat-xususiy sheriklikka oid ilmiy yondashuv va qarashlarning rivojlanish tendensiyalari .....                                               | 1545 |
| <b>O'ktamova Nargiza Narzulla qizi</b>                                                                                                         |      |
| Theoretical foundations of time series analysis in green economy .....                                                                         | 1552 |
| <b>Muradov Rustamjon Sobitkhonovich</b>                                                                                                        |      |
| Korxona faoliyati samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi: nazariya va amaliyot.....                                                  | 1563 |
| <b>Xalilov Bekzod Axmatovich</b>                                                                                                               |      |
| Aholi real daromadlarini shakllantirishda inson kapitalini rivojlantirishning roli.....                                                        | 1568 |
| <b>Iskandarova Dilafuz Ikrom qizi</b>                                                                                                          |      |
| Yashil iqtisodiyotda transportning tutgan o'рни.....                                                                                           | 1573 |
| <b>Yuldasheva Saodat Arslanovna, Otanazarova Charos Baxtiyor qizi</b>                                                                          |      |
| Xalqaro standartlar asosida hisob siyosati metodologiyasini takomillashtirish.....                                                             | 1577 |
| <b>Qurbanboev Jurabek Eruvboevich</b>                                                                                                          |      |
| Sanoat tarmoqlarini barqaror rivojlantirishda "yashil" iqtisodiyotdan samarali foydalanish<br>istiqbollari.....                                | 1585 |
| <b>Yuldasheva Saida Nematovna</b>                                                                                                              |      |
| Mintaqaviy mehnat bozorini tartibga solishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....                                                           | 1593 |
| <b>Azadova Gulnoza Sardorbekovna</b>                                                                                                           |      |
| O'zbekistonda yashil sug'urta mahsulotlarini rivojlantirishda xorij tajribalari .....                                                          | 1600 |
| <b>Yusufov Asfandiyor Eldor o'g'li</b>                                                                                                         |      |
| Понятие и типы финансовых шоков: макроэкономический контекст<br>и микроуровневые последствия .....                                             | 1606 |
| <b>Захарова Ирина Борисовна</b>                                                                                                                |      |
| Современное состояние оздоровительного туризма в Узбекистане .....                                                                             | 1611 |
| <b>Сирлибеков Хабибулло Шакарбоевич</b>                                                                                                        |      |
| Impact of industrial development on macroeconomic indicators.....                                                                              | 1621 |
| <b>Olchinboyev Otabek Abdusamad ugli</b>                                                                                                       |      |
| Анализ предпочтений на рынке электронной торговли в Узбекистане .....                                                                          | 1625 |
| <b>Уразов Комил Бахрамович, Хушмуродова Мадина</b>                                                                                             |      |
| Методы оценки деятельности акционерных обществ с учетом<br>инвестиционных рисков.....                                                          | 1639 |
| <b>Айтмуратова Улбике Жалгасовна</b>                                                                                                           |      |
| Xalqaro moliyaviy markazlar va ularning jahon iqtisodiyotidagi roli.....                                                                       | 1645 |
| <b>Sharipova Shaxinabonu Orif qizi</b>                                                                                                         |      |
| Development of modern tourism industry in Uzbekistan through smart technologies<br>and digital transformation.....                             | 1649 |
| <b>Master's student at Silk Road University</b>                                                                                                |      |
| Iqtisodiyotda qiymat nazariyasi asosida qishloq xo'jaligida qo'shilgan qiymatni shakllanishi.....                                              | 1656 |
| <b>Azizov Shohsuvor Yuldashevich</b>                                                                                                           |      |
| Xo'jalik yurituvchi subyektlar, ularda hisobdorlik va boshqaruvda axborotlarning<br>tahliliyligini oshirish masalalari .....                   | 1659 |
| <b>Yusupov Azizbek Baxtiyor o'g'li</b>                                                                                                         |      |



|                                                                                                                                   |      |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishda xalqaro hamkorlik: O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar .....       | 1665 |
| <b>Xashimov Pazliddin Zukurovich, Sobirxo‘jaev Xadyatillo Billoxon o‘g‘li</b>                                                     |      |
| Uy-joy fondini boshqarishning mazmun-mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari .....                                                   | 1671 |
| <b>Inoyatova Durdona Shoxaydarovna</b>                                                                                            |      |
| O‘zbekiston va markaziy osiyo davlatlari budjet siyosatining qiyosiy tahlili.....                                                 | 1677 |
| <b>Sharoxmatov Abduraxim Abdulamitovich</b>                                                                                       |      |
| Kambag‘allikni qisqartirish – mamlakatda barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘shishni ta‘minlash omili sifatida .....                    | 1683 |
| <b>Tashbaeva Saodatxon Alisherovna</b>                                                                                            |      |
| Финансовые технологии: сущность и задачи .....                                                                                    | 1687 |
| <b>Амонова Хафиза</b>                                                                                                             |      |
| O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati va investitsiya jarayonlarining o‘ziga xos xususiyatlari.....               | 1690 |
| <b>O‘rinov Akmaljon Axmadjonovich</b>                                                                                             |      |
| Budjet tashkilotlarida ichki audit tizimini shakllantirish: xorijiy tajriba.....                                                  | 1695 |
| <b>Po‘latov Tirkash Sotiboldiyevich</b>                                                                                           |      |
| “Ichki iste‘mol uchun qayta ishlash” bojxona protseduralarini O‘zbekiston sharoitida qo‘llashning ahamiyati.....                  | 1699 |
| <b>Buranov Husniddin Husenovich, Allabergenov Ozodjon Maksudbayevich</b>                                                          |      |
| To‘qimachilik sanoatini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....                                 | 1703 |
| <b>Muxiddinova Kamola Sagdullayevna</b>                                                                                           |      |
| O‘zbekiston respublikasida qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining rivojlanishini iqtisodiy tahlili .....                                  | 1708 |
| <b>Aysachev Abdulfotix Abdulfazovich</b>                                                                                          |      |
| Kichik biznes korxonalari uchun eksport salohiyatini oshirish yo‘llari va strategiyalar .....                                     | 1714 |
| <b>Mo‘minova Kanizaxon</b>                                                                                                        |      |
| Buxoro viloyatida agroklasterni tizimi rivojlantirish yo‘nalishlari va iqtisodiy samaradorligi .....                              | 1718 |
| <b>Ro‘ziyev Sobirjon Samatovich, Boltayeva Shaxnoz Bebudovna</b>                                                                  |      |
| Temir yo‘l tizimini modernizatsiya qilishda imitatsion model asosida tahliliy yondashuv.....                                      | 1724 |
| <b>Mamasidikov Muxsinjon Musajonovich</b>                                                                                         |      |
| Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля) .....                      | 1730 |
| <b>Исламов Шохзод Шухрат ўғли</b>                                                                                                 |      |
| O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash..... | 1738 |
| <b>Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi</b>                                                           |      |
| Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish .....                   | 1743 |
| <b>Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna</b>                                                                                           |      |
| O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari .....                                     | 1749 |
| <b>Otaxonova Dinora Musaboy qizi</b>                                                                                              |      |
| Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati.....                   | 1754 |
| <b>Axmedov Zafarjon A‘zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich</b>                                     |      |
| Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar .....                                   | 1762 |
| <b>Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li</b>                                                                |      |
| Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari .....                  | 1768 |
| <b>Sharipov Sherzod Shavkatovich</b>                                                                                              |      |
| Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari .....                                   | 1772 |
| <b>Madartov Bahrom Quvondiqovich</b>                                                                                              |      |
| Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish..... | 1776 |
| <b>Axmedov Latayibxon Mamitxonovich</b>                                                                                           |      |
| Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari.....                                                            | 1780 |
| <b>Xamrakulov Azamat Baxritdinovich</b>                                                                                           |      |



|                                                                                                                                                 |      |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari.....                                                  | 1785 |
| <b>Seytimbetov Kabul Serimbetovich</b>                                                                                                          |      |
| O'zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari.....                                                               | 1789 |
| <b>Dilovarxo'jayeva Dilnozaxon Shavkatxo'ja qizi</b>                                                                                            |      |
| Xodimlarni rag'batlantirish tizimida mehnatga haq to'lash .....                                                                                 | 1793 |
| <b>Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich</b>                                                                                                         |      |
| Mahalliy budget daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o'rni .....                                                                  | 1797 |
| <b>Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna</b>                                                                                                         |      |
| Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta'lim eksportining demografik salohiyati .....                                         | 1802 |
| <b>Abdullayev Javoxir Jaxongirovich</b>                                                                                                         |      |
| Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish .....                                                                                   | 1809 |
| <b>Djurayev Paxlavonjon Usarovich</b>                                                                                                           |      |
| Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari.....                                                                                      | 1815 |
| <b>Ismoilov Shohjahon O'tkir o'g'li, Abdullayev Ilyos Sultanovich</b>                                                                           |      |
| Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish .....                                                    | 1819 |
| <b>Omarov Mamanbiy Allabergenovich</b>                                                                                                          |      |
| Mathematical statistics in biology and medicine .....                                                                                           | 1826 |
| <b>Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog'amurotova Jasmina, Turotova Dildora</b>                                                              |      |
| "Yashil" energetika salohiyatini ro'yobga chiqarishda xatarlar va muammolar:                                                                    |      |
| O'zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar .....                                                                                                | 1833 |
| <b>Nasretdinov Nodir Tulqinovich</b>                                                                                                            |      |
| Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o'zbekistonda uni qo'llash imkoniyatlari.....                          | 1837 |
| <b>Shohruh Shuhrat o'g'li Mardonov</b>                                                                                                          |      |
| Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari.....                                                   | 1843 |
| <b>Iminov Farxodjon Tohirjonovich</b>                                                                                                           |      |
| Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане.....                                             | 1848 |
| <b>Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна</b>                                                                                      |      |
| Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход .....                          | 1858 |
| <b>Мадраимова Согдиана Равильевна</b>                                                                                                           |      |
| Sayyohlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari .....                                          | 1864 |
| <b>Sayfiddinov Sharofiddinxo'ja Najmiddin o'g'li</b>                                                                                            |      |
| Sanoat korxonalarida inqozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish .....                                                            | 1869 |
| <b>Muxammadov Umarjon Muxammad o'g'li</b>                                                                                                       |      |
| Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish .....                                                            | 1885 |
| <b>To'g'onov Ibrohimxo'ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li</b>                                                                                |      |
| Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug'urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....                                | 1889 |
| <b>Darxanova Umida</b>                                                                                                                          |      |
| Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish .....                                                  | 1895 |
| <b>Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich</b>                                                                                                      |      |
| O'zbekistonda aholi farovonligini ta'minlash yo'llari .....                                                                                     | 1902 |
| <b>Ibragimov Elmurod Gulboynor o'g'li</b>                                                                                                       |      |
| "Uzsuvta'minot" aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo'yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari..... | 1906 |
| <b>Saidakbarov Xusniddin Abdusalomovich</b>                                                                                                     |      |
| Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise .....                                                                       | 1909 |
| <b>U. Yusupov, Ye Junjiye</b>                                                                                                                   |      |
| Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана.....                                           | 1914 |
| <b>Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна</b>                                                                                 |      |



|                                                                                                                                                            |      |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------|
| Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O'zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari.....                                                      | 1920 |
| <b>Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich</b>                                                                                                                  |      |
| O'zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish .....                                                          | 1924 |
| <b>Mirzayev Ulug'bek Abdusattarovich</b>                                                                                                                   |      |
| Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari.....                                                               | 1931 |
| <b>Umurzoqova Adiba Ochilovna</b>                                                                                                                          |      |
| Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari.....                                            | 1937 |
| <b>Haqberdiyev Ulug'bek Nasrullo o'g'li</b>                                                                                                                |      |
| O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari.....                                                 | 1944 |
| <b>Shoymardonov Orziqul Jo'ra o'g'li</b>                                                                                                                   |      |
| The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes.....                           | 1949 |
| <b>Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna</b>                                                                                                |      |
| Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari .....                                                                                   | 1956 |
| <b>Maksudova Shaxzoda</b>                                                                                                                                  |      |
| Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta'lim bilan qoplanish darajasining ta'sirini baholash ..... | 1961 |
| <b>Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li</b>                                                                                                                      |      |



# ISH BILAN BANDLIK DARAJASIGA MAKROIQTISODIY OMILLAR: AHOLI JON BOSHIGA YAIM, INFLATSIYA, OLIY TA'LIM BILAN QOPLANISH DARAJASINING TA'SIRINI BAHOLASH

**Usmonov Ibrat Bobomurod o'g'li**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Statistika kafedrası statistika yo'nalishi

2-bosqich magistranti

e-mail: i.usmonov@tsue.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ish bilan bandlik darajasiga ta'sir etuvchi makroiqtisodiy omillar ekonometrik modellar yordamida tahlil qilingan. Aholi jon boshiga YAIM, oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi va inflyatsiya kabi o'zgaruvchilarning ish bilan bandlik ko'rsatkichiga ta'siri chiziqli regressiya hamda GMM modellaridan foydalangan holda baholandi.

**Kalit so'zlar:** bandlik darajasi, iqtisodiy faol aholi, mehnat bozori, oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi, aholi jon boshiga YAIM, bandlikning o'sishi.

**Abstract:** This article analyzes macroeconomic factors affecting the employment rate using econometric models. The impact of variables such as GDP per capita, higher education coverage, and inflation on the employment indicator was assessed using linear regression and GMM models.

**Key words:** employment rate, economically active population, labor market, higher education coverage rate, GDP per capita, employment growth.

**Аннотация:** В данной статье с помощью эконометрических моделей проанализированы макроэкономические факторы, влияющие на уровень занятости. Влияние таких переменных, как ВВП на душу населения, уровень охвата высшим образованием и инфляция, на показатель занятости оценивалось с использованием моделей линейной регрессии и обобщенного метода моментов (GMM).

**Ключевые слова:** : уровень занятости, экономически активное население, рынок труда, уровень охвата высшим образованием, ВВП на душу населения, рост занятости.

## KIRISH

Mehnat bozori har qanday mamlakatning rivojlanganlik darajasi va iqtisodiy ahvolini ifodalovchi eng muhim indikatorlardan biri bo'libgina qolmay, davlat siyosati, xususan aholining bandligi, ijtimoiy himoyasi va, albatta, turmush darajasini aks ettiruvchi ko'rsatkich ham hisoblanadi. Ish bilan bandlik iqtisodiy barqarorlik va aholi farovonligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Iqtisodiy o'sishning bandlik darajasiga ta'sirini aniqlash uchun turli ekonometrik yondashuvlar qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda chiziqli regressiya va GMM modellaridan foydalanilib, makroiqtisodiy omillarning ish bilan bandlikka ta'siri baholandi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning ish bilan bandlik darajasiga ta'siri iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulot (YAIM), inflyatsiya darajasi va oliy ta'lim bilan qamrab olish ko'rsatkichlari eng muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

Blanchard va Katz tomonidan AQSH bozorida o'rganilgan regional bandlik dinamikasiga oid tahlillarda iqtisodiy o'sishning aholi bandligiga uzoq muddatli va barqaror ijobiy ta'siri aniqlangan. Tadqiqotchilar o'z modellarida aynan aholi jon boshiga YAIM o'sishini iqtisodiy faollikni kuchaytiruvchi omil sifatida asoslab berganlar. Ushbu qarashlar Barro va Sala-i-Martin ishlarida ham mustahkamlangan bo'lib, ular aholi jon boshiga real daromadlar ortishi ishsizlikni qisqartirishga xizmat qilishini ko'rsatgan.

Inflyatsiya va bandlik o'rtasidagi bog'liqlik esa ko'p yillardan buyon iqtisodiy nazariyotlarda muhokama qilinib kelmoqda. Phillips egri chizig'i modeli inflyatsiya va ishsizlik o'rtasida qisqa muddatli muvozanat mavjudligini ko'rsatgan bo'lsa-da, Friedman va Phelps inflyatsiyaning kutilmalar asosida shakllanishini va uzoq



muddatda ishsizlikka ta'siri yo'qligini ilmiy asoslagan. Ushbu yondashuvga ko'ra, yuqori inflyatsiya darajasi ish beruvchilarning real ish haqi haqidagi xatti-harakatlariga ta'sir etib, vaqtincha bandlikka turtki bo'lishi mumkin, biroq bu uzoq muddatli ijobiy ta'sir bermaydi.

Oliy ta'lim bilan qoplanish darajasi esa inson kapitalining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida ko'riladi. Beckerning inson kapitali nazariyasiga ko'ra, yuqori malakali mehnat resurslari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, bandlik darajasini barqarorlashtiradi. Hanushek va Woessmann esa o'z tadqiqotlarida ta'lim sifati va bandlik o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni empirik ravishda isbotlaganlar. Ularning fikricha, nafaqat oliy ta'limga ega bo'lish, balki uning mazmuni va kompetensiyaviy darajasi ham bandlikka sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekistonda bu boradagi tahlillarni O. Khodjayev va A. Abdullayev kabi mahalliy olimlar olib borgan bo'lib, ularning tadqiqotlarida makroiqtisodiy barqarorlik, aholi daromadlari va ta'lim bilan qamrov bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etilgan. Biroq ular inflyatsiyaning yuqori darajasi bu ijobiy omillarni izdan chiqarishi mumkinligini ham alohida ta'kidlab o'tganlar.

Xalqaro tajribada OECD va ILO tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar asosida o'tkazilgan tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki, ishsizlik darajasini kamaytirishda tarkibiy islohotlar, xususan, ta'lim tizimini bozor ehtiyojlariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari ta'lim-bandlik uyg'unligining muhimligini namoyon etadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, bandlik darajasini oshirish uchun faqat iqtisodiy o'sishni ta'minlash yetarli emas. Inflyatsiyani nazorat qilish, ta'lim sifati oshirish va iqtisodiy siyosatni muvozanatli yuritish orqali bandlikka barqaror ta'sir ko'rsatish mumkin bo'ladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Samarali va to'g'ri ekonometrik model tuzish ko'plab omillarga bog'liq. Xususan, ma'lumotlarning to'g'riligi, ularning hajmi, ishlatilayotgan ma'lumotlar turi, ularning ta'rifi, mos model va usullardan foydalanish, natijalarni to'g'ri talqin qilish kabi omillar bu jarayonda muhim ahamiyat kasb etadi. Ekonometrikada model turlari yetarlicha ko'p bo'lib, ulardan tadqiqotga mosini tanlab olish zarur. Ushbu tahlilda quyidagi metod va modellar qo'llanildi:

Eng kichik kvadratlar (OLS) usuli – makroiqtisodiy omillarning ish bilan bandlikka ta'sirini aniqlash uchun qo'llanildi. Ushbu model mustaqil o'zgaruvchilarning natijaviy o'zgaruvchiga chiziqli ta'sirini baholash imkonini beradi.

Logarifmik transformatsiya – o'zgaruvchilarning foiz o'zgarishi asosida ta'sirini baholash maqsadida qo'llanildi. Bu yondashuv ma'lumotlar dispersiyasini kamaytirib, heteroskedastiklik muammosini bartaraf etishga xizmat qiladi.

Robust standard error metodlari – heteroskedastiklik muammosini bartaraf etish uchun ishlatildi. Odatdagi OLS metodida dispersiyaning o'zgaruvchilarga bog'liq bo'lishi muammo tug'diradi, robust standard error esa bu ta'sirni kamaytiradi.

Fixed effect regression modeli – mamlakatlar bo'yicha doimiy ta'sirlarni hisobga olish uchun qo'llanildi. Ushbu model vaqt davomida o'zgarmaydigan ichki xususiyatlarni nazorat qilish va mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni hisobga olish imkonini beradi. Fixed effect regressiyasi noaniqlikni kamaytiradi va o'zgaruvchilarning haqiqiy ta'sirini aniqroq baholaydi. Odatda bu model kuzatuvlar takrorlanuvchi va ichki o'zgarishlar tahlilini talab qilganda qo'llaniladi.

Umumlashtirilgan momentlar usuli (GMM) – ekonometrikada keng qo'llaniladigan baholash usulidir. Bu usul an'anaviy ehtimollikka asoslangan yondashuvlar qiyinchilik tug'dirgan hollarda model parametrlarini baholash imkonini beradi. GMM foydali, chunki u ma'lumotlarning to'liq ehtimollik taqsimoti noma'lum bo'lgan yoki faqat ba'zi nazariy "moment shartlari" – ya'ni o'rtacha qiymatlar, dispersiyalar yoki boshqa kutilmalar orqali ta'riflanadigan munosabatlarni boshqaradi.

GMM to'liq ehtimollik modelini talab qilmaydi. U iqtisodiy nazariyadan olingan moment shartlariga asoslanadi va oddiy chiziqli modellardan tortib, endogen o'zgaruvchilarga ega murakkab tizimlarga bo'lgan holatlarda qo'llanilishi mumkin. Optimal vazn matritsasi bilan GMM baholari ayrim sharoitlarda maksimal ehtimollik baholaridek samarali bo'lishi mumkin.

Mehnat resurslarining bandlik ko'rsatkichiga ta'sir etuvchi omillarni tanlash – bu iqtisodiy kategoriya va qonuniyatlarga asoslangan murakkab va vaqt talab etuvchi jarayondir. Sababi, iqtisodiyot murakkab tizim bo'lib, uning tarkibiy qismlari o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash va to'g'ri omillarni tanlab olish tadqiqotning ilmiy asoslanganligini belgilaydi.

Ushbu tadqiqotda Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) hamda Jahon banki (JB) ma'lumotlaridan foydalanildi. Ular 166 ta mamlakatni qamrab olgan bo'lib, 2010–2023-yillar oralig'ida tarqoq ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Model tuzishda, xususan GMM modellashtirishda uzluksiz ma'lumotlari mavjud 32 ta mamlakatning 2015–2022-yillardagi statistik ko'rsatkichlari asos bo'ldi. Kichik kvadratlar usulida esa bunday uzluksizlik shart emas.



Regressiya modellarida quyidagi bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar ishlatildi:

- Natijaviy belgi: bandlik darajasi (bandlik\_darajasi)
- Omil belgilar:

Aholi jon boshiga YaIM (log\_yaim)

Oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi (oliy\_talim)

Inflyatsiya darajasi (inflatsiya)

Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, ushbu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi uchun emas, balki dunyo mamlakatlari kesimida olingan. Chunki faqat bitta davlat bo'yicha ma'lumotlar iqtisodiy omillar o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur ochib berolmaydi. Ekonometrikadan ma'lumki, ma'lumotlar hajmi qanchalik katta bo'lsa, modelning noto'g'ri xulosalarga moyilligi (bias) shunchalik kamayadi. Bias odatda kichik hajmdagi, ammo ko'p parametrlil ma'lumotlar asosida model qurilganda vujudga keladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumotlarni tahlil qilishda ko'plab statistik testlar va ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Xususan, ma'lumotlarning normal taqsimotga mosligini tekshirish, ularni grafiklar orqali vizual tahlil qilish va o'zaro bog'liqlikni aniqlash keng tarqalgan usullardandir. Ushbu maqolada esa birmuncha sodda, lekin ilmiy adabiyotlarda keng qo'llaniladigan va samaradorligi isbotlangan yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni omillar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashdan boshlandi va quyidagi natijalarga erishildi (1-jadval):

1-jadval. Omillar o'rtasidagi korrelyatsiya ko'rsatkichlari.

|                  | Bandlik_darajasi | log_yaim | inflatsiya | Oliy_talim |
|------------------|------------------|----------|------------|------------|
| Bandlik_darajasi | 1.000            | 0.021    | 0.011      | 0.075      |
| log_yaim         | 0.021            | 1.000    | -0.106     | 0.553      |
| Inflatsiya       | 0.010            | -0.106   | 1.000      | -0.094     |
| Oliy_talim       | 0.075            | 0.553    | -0.094     | 1.000      |

Ushbu korrelyatsion jadvaldan ko'rinib turibdiki, bandlik darajasi bilan omillar o'rtasidagi bog'liqlik musbat, biroq zaifdir. Omillarning o'zaro bog'lanish darajalari ham past bo'lib, bu multikollinearlik xavfi yo'qligidan dalolat beradi. Albatta, bu xulosalar hali yakuniy ilmiy asosga ega emas. Faqatgina qolgan tahlillarni amalga oshirgach, model tuzish va uni baholash mumkin bo'ladi.

Yuqoridagi jadval asosida shuni aytish mumkinki, multikollinearlik mavjud emas. Shu sababli omillarni multikollinearlikka tekshirishga ehtiyoj qolmaydi. Bundan tashqari, omillar mamlakatlarning rasmiy statistika tashkilotlari tomonidan taqdim etilgan bo'lgani bois, ularni chetlanma qiymatlar (outliers) mavjudligi nuqtayi nazaridan alohida tekshirish ham talab etilmaydi.

Demak, keyingi bosqich – modellarni baholash!

Tadqiqot natijalari regressiya modellari asosida tahlil qilindi. Mamlakatlar va vaqt ta'sirlari olib tashlanganidan so'ng, shuningdek mamlakatlar bo'yicha klasterlashda robust standard error yondashuvidan foydalangan holdagi yakuniy OLS modeli quyidagi natijalarni ko'rsatdi:

R-squared: 0.872 – Model bandlik darajasining 87.2% o'zgarishini tushuntiradi.

F-statistic: 276.4 (p-value < 0.05) – Model umumiy statistik jihatdan ahamiyatli.

Asosiy koeffitsiyentlar:

log yaim: 0.105 (p-value < 0.05) – Aholi jon boshiga YaIM hajmi bandlik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

oliy talim va inflatsiya ( $p\text{-value} > 0.05$ ) statistik ahamiyatga ega emas.

Ushbu jadval orqali ushbu model natijalarini ko'rish mumkin (2-jadval).

2-jadval. Kichik Kvadratlar usuli yordamida tuzilgan model natijalari<sup>1</sup>.

|                         | koef.          | Standart chetlanish | z      | P> z         | 0.025  | 0.975 |
|-------------------------|----------------|---------------------|--------|--------------|--------|-------|
| Ozod had                | 3.0659         | 0.304               | 10.076 | 0.000        | 2.470  | 3.662 |
| C(davlat)[T.Uzbekistan] | 0.3329         | 0.079               | 4.188  | 0.000        | 0.177  | 0.489 |
| C(yil)[T.2011]          | 0.0007         | 0.016               | 0.044  | 0.965        | -0.03  | 0.031 |
| C(yil)[T.2012]          | -0.0271        | 0.016               | -1.654 | 0.098        | -0.059 | 0.005 |
| C(yil)[T.2013]          | -0.0117        | 0.013               | -0.914 | 0.361        | -0.037 | 0.013 |
| C(yil)[T.2014]          | -0.0057        | 0.017               | -0.329 | 0.742        | -0.04  | 0.028 |
| C(yil)[T.2015]          | -0.0042        | 0.013               | -0.312 | 0.755        | -0.03  | 0.022 |
| C(yil)[T.2016]          | 0.0126         | 0.014               | 0.915  | 0.36         | -0.014 | 0.04  |
| C(yil)[T.2017]          | 0.0097         | 0.012               | 0.792  | 0.429        | -0.014 | 0.034 |
| C(yil)[T.2018]          | 0.0055         | 0.015               | 0.37   | 0.711        | -0.024 | 0.034 |
| C(yil)[T.2019]          | 0.0194         | 0.015               | 1.291  | 0.197        | -0.01  | 0.049 |
| C(yil)[T.2020]          | 0.0057         | 0.017               | 0.336  | 0.737        | -0.028 | 0.039 |
| C(yil)[T.2021]          | -0.0068        | 0.017               | -0.398 | 0.691        | -0.04  | 0.027 |
| C(yil)[T.2022]          | 0.0173         | 0.026               | 0.666  | 0.506        | -0.034 | 0.068 |
| C(yil)[T.2023]          | 0.0026         | 0.03                | 0.085  | 0.933        | -0.057 | 0.062 |
| log_yaim                | <b>0.1054</b>  | 0.048               | 2.196  | <b>0.028</b> | 0.011  | 0.2   |
| inflatsiya              | <b>-0.0026</b> | 0.007               | -0.366 | <b>0.714</b> | -0.017 | 0.011 |
| oliy_talim              | <b>0.001</b>   | 0.003               | 0.307  | <b>0.759</b> | -0.005 | 0.007 |

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, tuzilgan model statistik ahamiyatga ega. log\_yaim o'zgaruvchisini bir birlikka oshirish bandlik darajasini o'rtacha 0.105 birlikka oshiradi. Ushbu ko'rsatkich uchun  $p < 0.05$  bo'lgani sababli u statistik jihatdan ahamiyatlidir.

Model parametrlarini kiritishda instrumentlar sifatida log\_yaim, oliy\_talim va inflatsiya o'zgaruvchilari, shuningdek, ularning laglari (ya'ni kechiktirilgan qiymatlari) 2 va 3 yil oldingi davrlar uchun tanlab olindi. Bu shuni anglatadiki, model nafaqat joriy yil ma'lumotlari asosida, balki 2–3 yil avvalgi statistik axborotlardan ham foydalanadi. Bunday yondashuv vaqt oralig'idagi inersiyani hisobga olish imkonini beradi va model baholarining aniqligini oshiradi (3-jadval).

3-jadval. GMM usuli yordamida tuzilgan model natijalari.

| O'zgaruvchilar                            | Koeffitsiyentlar | Xatolik  | z-value | Pr(> z )  |
|-------------------------------------------|------------------|----------|---------|-----------|
| log_yaim                                  | 7.697065         | 1.501725 | 5.1255  | 2.968e-07 |
| oliy_talim                                | -0.079437        | 0.111176 | -0.7145 | 0.4749    |
| inflatsiya                                | -0.021570        | 0.040521 | -0.5323 | 0.5945    |
| Sargan test: chisq(30) = 30.64216         |                  |          |         | 0.43315   |
| Avtokorrelyatsiya (1): normal = -1.147083 |                  |          |         | 0.25135   |
| Avtokorrelyatsiya (2): normal = -2.07224  |                  |          |         | 0.38243   |
| Wald test: chisq (3) = 35.13408           |                  |          |         | 1.1413e-7 |

Ushbu ma'lumotlar ham shuni tasdiqlamoqdaki, GMM algoritmi asosida tuzilgan modelimiz statistik ahamiyatga ega (Sargan test,  $p$ -value  $> 0.05$ ) va tanlangan omillar bandlik darajasini baholashda foydalanish mumkin. GMM usulida tuzilgan modelda log\_yaim o'zgaruvchisini bir birlikka oshirish bandlik darajasini o'rtacha 7.7 birlikka oshirishga olib keladi. Biroq, oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi hamda inflyatsiya ko'rsatkichlari statistik jihatdan ma'nodor emas. Ya'ni, ushbu o'zgaruvchilar bandlik darajasidagi o'zgarishlarni yetarli darajada tushuntirib bera olmaydi.

1 Ushbu jadvalda barcha mamlakatlar uchun model natijalari berilgan bo'lib, uning hajmi kattaligi bois faqat O'zbekistonning natijalarini keltirishga qaror qildik



## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, ushbu tadqiqot bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillarning ta'sirini empirik jihatdan asoslab berdi. Kelajakda yanada murakkab ekonometrik modellar yordamida chuqurroq tahlillar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqoridagi tahlillar asosida quyidagi umumiy xulosaga kelish mumkin: aholi jon boshiga YaIM hajmi bilan bandlik darajasi o'rtasida musbat va statistik ahamiyatga ega bog'liqlik mavjud. Ushbu o'zgaruvchi bandlik darajasini baholashda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Biroq, oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi va inflyatsiya ko'rsatkichlari hozirgi modelda statistik jihatdan ahamiyatli emas. Shunga qaramay, bu ularning ahamiyatsizligini anglatmaydi, uzoq yillik ma'lumotlar va boshqa instrumentlar asosida qayta tahlil qilinganda, ular ham statistik ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, model barcha mamlakatlar: rivojlangan, rivojlanayotgan va kam rivojlangan davlatlar bo'yicha tuzilganligi sababli ayrim omillarning ta'siri umumlashtirilgan tahlilda sezilmasligi mumkin. Shuning uchun mamlakatlarni alohida guruhlariga ajratgan holda alohida tahlillar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu esa omillar ta'sirini aniqroq va mantiqiyroq talqin qilishga yordam beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, sifatli model yaratishda asosiy omillar – bu ma'lumotlar hajmi, to'g'ri ta'sir etuvchi o'zgaruvchilarni aniqlay olish, va, albatta, mos modelni tanlashdir. Yaxshi model va prognozlar tuzish uchun mavjud ma'lumotlar yetarli bo'lmisligi mumkin. Biroq, mavjud statistik axborot asosida aniqroq va ishonchli model yaratishga intildik.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eric A. Hanushek, Ludger Woessmann. The Knowledge Capital of Nations. – Cambridge, MA: MIT Press, 2015. – 272 p.
2. Olivier Blanchard, Lawrence F. Katz. Regional Evolutions. – Brookings Papers on Economic Activity, 1992. – No. 1. – pp. 1–61.
3. Edmund S. Phelps. Phillips Curves, Expectations of Inflation and Optimal Unemployment over Time. – *Economica*, 1967. – Vol. 34, No. 135. – pp. 254–281.
4. James T. McClave, Terry Sincich "Statistics", 2013 y.
5. Jeffrey Wooldridge "Introductory econometrics: a modern approach", 2019 y.
6. Joshua Angrist "Mastering Metrics: The Path from Cause to Effect", 2014 y.
7. Robert J. Barro, Xavier Sala-i-Martin. Economic Growth. – Cambridge, MA: MIT Press, 2004. – 672 p.
8. Gary S. Becker. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. – Chicago: University of Chicago Press, 1993. – 390 p.
9. Milton Friedman. The Role of Monetary Policy. – *American Economic Review*, 1968. – Vol. 58, No. 1. – pp. 1–17.
10. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2022. – Geneva: ILO, 2022. – 190 p.
11. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023. – 510 p.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>